


O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimi (2019/2020 o‘quv yili boshida)

Bugungi kunda ta’lim inson faoliyatining barcha sohalarida yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko‘tarishning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko‘lamini tushunadigan kadrlarga talab yuqori. Bular nafaqat joriy xo‘jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki to‘g‘ri qaror qabul qiladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo‘lishi lozim. Oliy ta’lim tizimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlaydi. Oliy ta’lim ikki bosqichga: Bakalavriat bosqichi–mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’limdir. Magistratura bosqichi–aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta’lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.


Oliy ta’lim muassasalarining 2019/2020 o‘quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda



O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 119 ta oliy ta‘lim muassasalari mavjud bo‘lib, ularning tarkibida 7 ta akademiya, 58 ta universitetlar va 5 ta oliy diniy ta‘lim muassasalari hamda filiallari faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, Toshkent shahrida xalqaro Vestminster universiteti, G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti va shu kabi xorijiy oliy o‘quv yurtlarining filiallari faoliyat olib bormoqda.

Oliy ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish ta‘lim sifatini oshirish, tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida davlatimiz tomonidan oliy ta‘lim tizimining huquqiy bazasi yanada takomillashtirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, Respublika Prezidentining 2019 yil 8 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni tasdiqlandi.

2019/2020 o‘quv yilida oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilingan talabalarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi




Oliy ta'lim muassasalarida 2019/2020 o'quv yili boshida jami 138,1 ming kishi talabalikka qabul qilinib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davrida 114,5 ming kishini tashkil etgan, (23,8 ming kishiga, yoki 20,6 % ga oshgan). Hududlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga qabul ko'rsatkichlarining yuqoriligi bo'yicha Toshkent viloyati o'tgan yilga nisbatan 40,3 % ga, Andijon viloyati 31,3 % va Fag'ona viloyatida 25,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Oliy ta'lim bakalavriat bosqichining asosiy ko'rsatkichlari

2019-yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 65,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 18,6 ming nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2019-yilda bakalavriat bosqichini bitirganlarning 25,0 ming nafari qizlar (38,3 %) tashkil etgan. 2020-yilda bakalavriatni 76,9 ming nafar talaba bitirishi kutilmoqda, ularning 22,1 ming nafari (28,7 %) davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalarni tashkil qiladi.

2019/2020 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida jami 441,0 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 202,5 ming nafari (45,9% ni) qizlar tashkil etadi. Talabalarning 18,6 % i davlat grantlari asosida, 81,4 % i to'lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda.


O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan 18 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalarida esa jami 18,2 ming nafar talabalar tahsil olmoqda



Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2019-2020 o'quv yili uchun magistraturaga jami 9362 nafar talaba qabul qilingan. Talabalardan, 44,1 % i (4131 nafari) davlat granti asosida, 55,9 % i (5231 nafari) to'lov shartnomasi asosida qabul qilingan. 2018-2019 o'quv yilida magistraturaga jami 5725 nafar qabul qilingan talabalardan, 27,2 % i (1555 nafari) davlat granti asosida, 72,8 % i (4170 nafari) to'lov shartnomasi asosida qabul qilingan. Magistraturaga qabul kvotalari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,8 % ga oshgan, shu jumladan, davlat granti asosida qabul kvotalari ham 2,7 barobarga ko'paygan.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha hududlar kesimida taqsimlanishi, % da




2019/2020 o'quv yili boshida oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishida boshqa hududlarga nisbatan ayollar ulushining yuqoriligi Navoiy viloyatida 60,2 %, Sirdaryo viloyatida 56,2 % va Surxondaryo viloyatida 55,2 % ni tashkil etmoqda, erkaklar ulushining yuqoriligi bo'yicha Toshkent shahri 61,1 %, Toshkent viloyati 59,9 % va Samarqand viloyatida 58,9 % ni tashkil etgan.

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida ta'lim olayotgan talabalarning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishi

2019/2020 o'quv yili boshida oliy o'quv yurtlarida jami tahsil olayotgan bakalavriat bosqichida talabalar soni 424,9 ming nafarga yetgan bo'lib, gumanitar sohada 206,9 ming nafar (48,7%) talaba, Ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq yo'nalishlarida 41,6 ming nafar (9,8%) talaba, ishlab chiqarish texnikasi sohasi yo'nalishi 105,1 ming nafar (24,7%) talaba, qishloq va suv xo'jaligi 25,9 ming nafar (6,1%) talaba, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot 27,1 ming nafar (6,4%) talaba, xizmatlar sohasida 18,4 ming nafar (4,3%) talaba tahsil olmoqda.

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalarning ulushi, % da




● Gumanitar soha ● Ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq ● Ishlab chiqarish texnika sohasi
● Qishloq va suv xo'jaligi ● Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot ● Xizmatlar sohasi

2019/2020 o'quv yili boshida talabalarning ta'lim turlari bo'yicha taqsimlanishi



Mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'limning barcha bo'g'ini, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu jihatlar ta'lim sifatini tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning qamrovini tobora oshirish kabilarda o'zining yorqin ifodasini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 119 ta oliy ta'lim muassasalarida jami 441,0 ming nafar talabadan 360,1 ming nafari (81,6%) kunduzgi ta'lim shaklida, 73,6 ming nafari (16,7%) sirtqi ta'lim shakli, 7,3 ming nafari (1,7%) kechki ta'lim shakli bo'yicha tahsil olmoqda.



Oliy ta’lim muassasalari talabalarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

(2019/2020 o‘quv yili boshida)

	Jami	Shu jumladan:								
		17 yosh va undan kichik	18 yosh	19 yosh	20 yosh	21 yosh	22 yosh	23 yosh	24 yosh	25 yosh va undan katta
O‘zbekiston Respublikasi	440991	6592	26942	43844	54333	55843	54264	45636	37365	116172
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	25442	243	1094	2536	3135	4014	3388	2964	2405	5663
<i>viloyatlar:</i>										
Andijon	26036	748	922	1972	2577	3134	3252	3399	3010	7022
Buxoro	24771	433	1462	2643	3432	3764	3580	2759	1754	4944
Jizzax	18000	37	2143	2623	2916	1601	1842	1076	883	4879
Qashqadaryo	22452	178	798	1404	2038	2322	2805	2681	2546	7680
Navoiy	13636	477	1031	1376	1906	1722	1857	1188	883	3196
Namangan	20109	105	642	1706	1998	2046	1815	1696	1575	8526
Samarqand	41093	662	2116	3491	4314	5179	5408	4653	4159	11111
Surxondaryo	20131	124	537	854	1650	2066	2283	1853	1792	8972
Sirdaryo	9089	163	781	1005	1098	1080	1038	778	640	2506
Toshkent	20914	93	2762	2548	2508	2122	1825	1747	1385	5924
Farg‘ona	35819	383	1502	2961	4283	4332	4513	3922	3004	10919
Xorazm	16216	30	350	1417	2004	1971	2233	2061	1632	4518
Toshkent sh.	147283	2916	10802	17308	20474	20490	18425	14859	11697	30312

Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olinishi va ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish asosiy vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 17 yosh va undan kichik talabalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri va Andijon viloyatlarida qayd etilgan bo‘lsa, eng kam ko‘rsatkich Xorazm viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, 25 yosh va undan katta talabalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri va Samarqand viloyatlarida hamda eng kam ko‘rsatkich Jizzax viloyatiga to‘g‘ri kelgan.



Oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat bosqichiga qabul natijalari

(2019/2020 o'quv yili uchun)

	Ta'limning barcha turlari			Kunduzgi ta'lim shakli		
	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa
O'zbekiston Respublikasi	1157634	128730	899	798410	102448	779
Qoraqalpog'iston Respublikasi	73439	6827	1076	55402	5503	1007
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	78366	7179	1092	56705	5481	1035
Buxoro	43546	6244	697	28072	5159	544
Jizzax	55845	5759	970	39977	4363	916
Qashqadaryo	83805	5875	1427	57859	4381	1321
Navoiy	30063	3582	839	18173	2582	704
Namangan	59664	6042	988	39479	4585	861
Samarqand	117402	11819	993	76298	9336	817
Surxondaryo	71402	6078	1175	52630	4841	1087
Sirdaryo	38075	2997	1270	20881	2140	976
Toshkent	47653	6419	742	25247	4059	622
Farg'ona	115309	11583	996	71213	8866	803
Xorazm	44248	4438	997	29911	3458	865
Toshkent sh.	298817	43888	681	226563	37694	601

Oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat bosqichiga qabul natijalari tahlilidan ko'rinadiki, 100 o'ringa to'g'ri keladigan eng yuqori ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida 1427 nafar, Sirdaryo viloyatida 1270 nafar va Surxondaryo viloyatida 1175 nafarni tashkil etadi.


(davomi)

	Sirtqi ta'lim shakli			Kechki ta'lim shakli		
	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa
O'zbekiston Respublikasi	324710	23145	1403	34514	3137	1100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17180	1225	1402	857	99	866
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	21661	1698	1276	-	-	-
Buxoro	15474	1085	1426	-	-	-
Jizzax	15868	1396	1137	-	-	-
Qashqadaryo	25946	1494	1737	-	-	-
Navoiy	11890	1000	1189	-	-	-
Namangan	18474	1208	1529	1711	249	687
Samarqand	38086	2110	1805	3018	373	809
Surxondaryo	18772	1237	1518	-	-	-
Sirdaryo	17194	857	2006	-	-	-
Toshkent	16625	2080	799	5781	280	2065
Farg'ona	27556	1867	1476	16540	850	1946
Xorazm	14337	980	1463	-	-	-
Toshkent sh.	65647	4908	1338	6607	1286	514




2019/2020 o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ta'limning barcha turlari bo'yicha bakalvriat bosqichiga jami abuturentlar tomonidan 1157634 ta ariza topshirilgan bo'lib, respublika bo'yicha 100 o'ringa 899 nafar kishini tashkil etgan.

2019/2020 o‘quv yili boshiga oliy ta‘lim muassasalarida professor-o‘qituvchi xodimlarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi



2019/2020 o‘quv yili boshida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida jami 30559 nafar professor-o‘qituvchilar (o‘rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 13187 nafari ayollar (43,2%ni) ni tashkil etsa, 17372 nafari erkaklar (56,8% ga teng) dan iborat.



Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchi xodimlari soni, kishi
(2019/2020 o‘quv yili boshida)

	Asosiy (shtatdagi) xodimlar	Asosiy (shtatdagi) xodimlardan ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo‘lganlar:				
		Ilmiy darajaga:			Ilmiy unvonga:	
		Fan doktori	Fan nomzodi	Falsafa doktori	Professor	Dotsent
O‘zbekiston Respublikasi	30559	1811	6181	1081	1326	4645
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1653	64	353	77	36	247
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	2346	97	384	74	55	306
Buxoro	1700	68	403	54	27	272
Jizzax	970	28	166	31	17	136
Qashqadaryo	1404	45	253	42	35	175
Navoiy	716	15	124	19	10	99
Namangan	1131	35	318	44	18	156
Samarqand	3241	201	700	123	144	529
Surxondaryo	1136	26	147	14	20	105
Sirdaryo	520	34	92	13	31	96
Toshkent	1268	108	263	56	50	154
Farg‘ona	1885	47	341	81	47	244
Xorazm	1082	23	178	22	17	98
Toshkent sh.	11507	1020	2459	431	819	2028

Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarida jami 30559 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, fan doktori ilmiy darajasiga ega 1811 nafarni, fan nomzodlari 6181 nafarni hamda falsafa doktori 1081 nafarni tashkil etmoqda.

Shuningdek ilmiy unvoni bo‘yicha professorlar 1326 nafarni, dotsentlar 4645 nafarni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni, kishi
(2019/2020 o‘quv yili boshida)**



2019/2020 o‘quv yili boshiga O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 14 nafar talaba to‘g‘ri keladi. Shulardan hududlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax, Navoiy va Farg‘ona viloyatlarida qayd etilib, unda bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 19 nafar talaba to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Andijon viloyatida esa eng past ko‘rsatkich ya‘ni bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 11 nafar talaba to‘g‘ri kelgan.



Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi

71-230-81-62